

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI JISMONIY SIFATLARNI
RIVOJLANTIRISH**

Jizzax politexnika instituti Jismoniy tarbiya kafedrası

Assistent **Haydarov Sarvar**

SH. RASHIDOV tumani MMTB qarashli 50 - umumiy o'rta ta'lim maktabing

Jismoniy tarbiya fan o'qituvchisi **Sunatov Jahongir Olim O'g'li**

Jizzax politexnika instituti qurulish muhandisligi 4-bosqich

talabasi **Ahrorov Shohjahon**

Annotatsiya *Ushbu maqolada o'sib kilayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, ma'naviyatli va qadriyatlarimizni e'zozlaydigan qilib tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sportning o'rni. Hozirgi kunda yangi ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish hamda ularning samaralari.*

Kalit so'zlar: *jismoniy tarbiya va sport, darslar, pedagogic texnologiya, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari.*

Abstract *In this article, the role of physical education and sports in raising the young generation to be mature, spiritual and respectful of our abilities. Nowadays, the use of new advanced pedagogical technologies and their effects.*

Key words: *physical education and sports, lessons, pedagogical technology, physical education classes.*

Tahlillar jarayonida umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari bilan olib boriladigan jismoniy tarbiya va sport tadbirlari asosan jismoniy tarbiya darslari, dars va sinfdan tashqari jismoniy tarbiya mashg'ulotlari, maqtabdan tashqari jismoniy tarbiya ishlari yo'nalishlarida olib borilishi aniqlandi. O'quvchilar jismoniy tarbiyasini amalga oshirish yo'nalishlarining o'zi ham shakl va mazmuniga ko'ra yoki ko'plab turlarga bo'linib ketadi. Shu nuqtai nazardan tadbirlar jarayonida o'quvchilarga bir qator milliy qadriyatlarni singdirishni yanada takomillashtirishning ilmiy-uslubiy jihatdan asoslab berish maqsad qilib olindi. Umumiy o'rta ta'lim turida jismoniy tarbiya shakllari: jismoniy tarbiya darslari, darsdan tashqari mashg'ulotlar, sinfdan tashqari mashg'ulotlar, umummaktab tadbirlari hamda mustaqil mashg'ulotlardan tarkib topadi.

Boshlang'ich sinflarga sinfdan tashqari vaqtda o'tkaziladigan jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish mashg'ulotlari, sport hamda sog'lomlashtirish tadbirlari tizimini sinfdan tashqari ishlar deb atash qabul qilingan. Sinfdan tashqari ishlarning maqsadi vazifalari va uni tashkillash

o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi va uning madaniyati uchun qo'yilgan umumiy maqsad, vazifalar bilan muvofiqlashtirilgan va O'zbekiston Respublikasining Xalq ta'limi vazirligini bir qator uslubiy yo'riqnomalari, normativ hujjatlari, ko'rsatmalari va qarorlari bilan reglamentlashtirilgan.

Boshlang'ich sinflar jismoniy madaniyatining umumiy tarkibiy qismini tashkillovchi, o'quv ishlarini to'ldiruvchi va unga bo'ysundirilgan mashg'ulotlarning bunday shakllari o'quvchi jismoniy madaniyat jarayonini maxsus hayotiy zaruriy bilimlar, harakat malakalari, ko'nikmalari bilan boyitadi.

Eng ahamiyatli tomoni shundaki, bu mashg'ulotlar va tadbirlar o'quvchilarning qiziqishlariga tayanib va ko'ngilli ravishda, ularning xohishlari asosida tuziladi va boshqaruv ularning ixtiyoriga beriladi. Bu o'z navbatida o'quvchilarda tashabbus ko'rsatish, o'z fikrini jamoaga o'tkazish yoki uning aksi, jamoaning fikri bilan hisoblashish, lozim bo'lsa unga bo'ysunish hamda jamoaning jamoatchilik asosidagi o'zi xohlagan yo'nalishida faoliyat ko'rsatish, jamoasi yoki o'z maktabi, tumani (shahri), viloyati, kerak bo'lsa vatan sharafi uchun kurashish, himoya qilishdek hissiyotlarni tarbiyalaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun sinfdan tashqari ishlar quyidagilardan iborat.

- 1.Sport, ko'ngil ochish tadbirlari.
- 2.Sport to'garaklari.
- 3.Bayramlar
- 4.Musobaqalar.
- 5.Quvnoq startlar.
6. Uchrashuvlar.
- 7.Salomatlik kuni.
- 11.Maktab sport to'garaklari.

Umumiy ta'lim maktablari o'quvchilarining sport mahoratini oshirish, jismoniy sifatlarini rivojlantirish hamda ma'naviy-axloqiy tarbiyasini amalga oshirish maqsadida sport to'garaklari tashkil etiladi. Sport to'garaklari o'quvchilarning maktabdan tashqari sport muassasalarida shug'ullanishni imkoniyati bo'lmagan, sportning u yoki bu turida shug'ullanishga nisbatan qobiliyatli o'quvchilar uchun tashkil qilindi. To'garakni tuzishda shu to'garak uchun maktabdagi sharoit, uni tashkil qilish va olib borish uchun mutaxassis o'qituvchi - murabbiylarning mavjudligi hisobga olinadi.

O'zbek xalq madaniyatining tarkibiy qismi hisoblangan milliy xalq o'yinlari xalq ma'naviyati va madaniyatini yangi avlodni shakllantirish va ular orasida sog'lom turmush tarzini yaratishda alohida o'rin tutadi.

Milliy o'yinlar milliy qadriyatlarimizning tarkibiy qismi hisoblanib, ular orqali shaxsga xos bo'lgan vatanparvarlik, jasurlik, mardlik, matonat, ahillilik, jamoaviylik, ishonch, rostgo'ylik, sabrlilik, sadoqat, samimiyluk kabi ma'naviy-axloqiy fazilatlar shakllanadi. Umumiy o'rta ta'lim turida jismoniy tarbiya shakllari: jismoniy tarbiya darslari, darsdan tashqari mashg'ulotlar, sinfdan tashqari mashg'ulotlar, umummaktab tadbirlari hamda mustaqil mashg'ulotlardan tarkib topadi va ushbu mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarda muntazam ravishda jismoniy sifatlar rivojlantirilib boriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Аҳмедов Ф.Қ., Ш.Ў.Атамуродов Бошланғич синфларда жисмоний маданият дарслари.Ўқув-услубий қўлланма. Жиззах-2017.
2. Davronov N. I. THE CONCEPT OF PHYSICAL EDUCATION AND PHYSICAL CULTURE //УЧЕНЫЙ XXI BEKA. – С. 91.
3. Farxod o'g'li, S. F. (2023). OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA O'QITISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI. SCIENCE AND SCIENTIFIC RESEARCH IN THE MODERN WORLD, 1(2).
4. Farxod o'g'li, Soliyev Farrux. "OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA O'QITISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI." SCIENCE AND SCIENTIFIC RESEARCH IN THE MODERN WORLD 1.2 (2023).
5. Farxod o'g'li, S. F. (2024). ZAMONAVIY INNOVATION TA'LIMGA BESH TASHABBUSNING TATBIQ ETILISHI. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 2(21), 425-428.
6. Давронов Н. И. «Авеста» как ценность и источник по физическому воспитанию молодежи //Педагогическое образование и наука. – 2020. – №. 1. – С. 87-91.
7. Давронов Н. И. ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ ВРЕДНЫХ ПРИВЫЧЕК У ПОДРОСТКОВ НА ОСНОВЕ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА //EUROPEAN RESEARCH. – 2018. – С. 132-134.
8. Qirg'izov, I. M. (2024). JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSIYALAR. PEDAGOG, 7(6), 366-369.
9. Qirg'izov, I. M. (2024). JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSIYALAR. PEDAGOG, 7(6), 366-369.

10. Farxod o'g'li, S. F. (2024). ZAMONAVIY INNOVATSION TA'LIMGA BESH TASHABBUSNING TATBIQ ETILISHI. *SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH*, 2(21), 425-428.

11. Berdanov, A. O. (2022). Jismoniy tarbiyaning talabalar kasbiy tarbiyasida va talaba shaxsining ijtimoiy madaniy rivojlanishda tutgan ahamiyati. *Science and Education*, 3(3), 424-430.

12. Берданов, А. О. (2019). ФОРМИРОВАНИЕ КУЛЬТУРЫ ЗДОРОВЬЯ И ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ. *Вестник науки*, 3(11 (20)), 33-36.